

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARINING TAKOMILLASHISH BOSQICHI

Mardonov Zafar Muzaffarovich

O‘zDSMI “Milliy qo‘sishqchilik” kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola mamlakatimizda o‘zbek xalq cholg‘ularining takomillashuv bosqichlari, ularni qanday amalga oshirilganligi, davlat tomonidan yosh cholg‘uchi, sozandalarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Bastakor, an’anaviy musiqa, milliy urf-odatlar, bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish, O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish, ustoz-shogird an’anasi, musiqa ilmi, sozandalar, cholg‘u ijrochiligi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье написано об этапах совершенствования узбекских народных инструментов в нашей стране, о том, как они внедрялись, о возможностях, создаваемых государством для молодых музыкантов и музыкантов.

Ключевые слова: Композитор, традиционная музыка, национальные традиции, дальнейшее совершенствование детских музыкальных и художественных школ, дальнейшее развитие узбекского национального искусства, традиция мастера-ученика, музыкальная наука, музыканты, инструментальное исполнительство.

ABSTRACT

This article is written about the stages of improvement of Uzbek folk instruments in our country, how they were implemented, the opportunities created by the state for young musicians and musicians.

Keywords: Composer, traditional music, national traditions, further improvement of children’s music and art schools, further development of Uzbek national art, tradition of master-disciple, music science, musicians, instrumental performance.

Musiqa azaldan kuchli vosita sifatida ta’lim-tarbiyaning barcha tizimlarida keng qo‘llanilgan. Musiqa insonlarning ongi va ruhiyatiga chuqur ta’sir qiluvchi, ularda yuksak ma’naviy madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida qaralganligi bois unga katta e’tibor berilgan. Mamlakatimizda madaniyat va san’at

rivoji bo'yicha chiqarilayotgan qator qaror va farmoyishlar ham bejizga emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-sonli - Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016-2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risidagi, 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-sonli-O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi, 2022-yil 2-fevraldag'i - Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-112-sonli Qarorlari madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish davlat miqiyosida e'tibor qaratilayotganligidan dalolat.¹

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ilgari surgan 5 ta muhim tashshabbus bo'yicha olib boriladigan ishlar ko'لامi qancha keng ekanligini ko'rsatib turibdi.

Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniyning – "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" ² degan so'zlari nechog'li xaq ekanligini hammamiz yaxshi anglab turibmiz. Tarbiya bo'lmas ekan ta'lim xam bo'lmaydi chunki bu ikkilasi bir biriga chambarchas bog'liq.

O'zbekistonda ta'lim dastlab — ustoz-shogird an'anasi asosida olib borilgan bo'lsa bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarda — ustoz-shogird an'anasi bilan birga ta'lim va tarbiyani uyg'unlashtirgan xolda yoshlarga bilim berilib kelinmoqda. Bunday mas'uliyatli vazifa esa albatta o'qituvchilar zimmasida. Shu boisdan Respublikamizda so'ngi yillarda o'qituvchilar mavqiyini ko'tarish uchun talaygina ishlar amalga oshirilmoqdaki bu esa o'z samarasini berida albatta.

Bugungi kunda yurtimizda har bir soha bo'yicha o'rta maxsus va oliv ta'lim muassasalarida o'qituvchi kadrlar tayyorlanmoqda. Musiqa ta'limi bo'yicha ham pedagogika universitetlarida mutaxassislar tayyorlanib umumiy o'rta ta'lim maktablarini kadrlar bilan ta'minlab kelinmoqda. Xech kimga sir emaski ta'lim va tarbiyada musiqaning o'rni beqiyos shu sababdan azaldan musiqaga alohida e'tibor berishgan. Dunyoda qadim tarixga va juda boy musiqiy merosga ega xalqlardan biri bu o'zbek xalqidir.

¹ www.Lex.uz

² Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asari

Buni birgini musiqiy cholg‘ulari misolida xam ko‘rishimiz mumkin. Masalan; doira, nog‘ora, qayroq, nay, qo‘shnay, surnay, karnay, sibizg‘a, sopolnay, changqobuz, do‘mbira, dutor, tanbur, rubob, ud, g‘ijjak, chang, qonun.¹

Bugungi kunda o‘zbek xalq cholg‘ulari respublikamizda mavjud bolalar musiqa va san’at mакtablarida, ixtisoslashtirilgan musiqa va san’at mакtablarida, o‘rta maxsus musiqa va san’at kollejlarida shu bilan birga barkamol avlod ijodiyot mакtablari va madaniyat uylarida tashkil etilgan to‘garaklarda o‘rgatilib kelinmoqda. Oliy ta’lim muassasalaridan O‘zbekiston davlat konservatoriysi va O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘zbek xalq cholg‘ularini o‘rgatish uchun asosiy kadrlarni tayyorlab kelgan bo‘lsa bugungi kunga kelib musiqa va san’at sohasida mutaxassis kadarlarni tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari soni sezilarli darajada oshdi. O‘zbekiston davlat konservatoriysi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Nukus filiali shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi — 2019-2020 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida PQ-4359-sonli qaroriga asosan Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Guliston davlat universitetida, Qoraqalpoq davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Samarkand davlat universiteti, Termiz davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika institutlarini sanib o‘tish mumkin.

Shu tariqa cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha) va Kasb ta’limi: cholg‘u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishlari sohasi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lish istagida bo‘lgan abiturentlarni respublika bo‘ylab to‘liq qamrab olish imkoniyati oshirildi.

Bu albatta o‘zbek xalq cholg‘ularini o‘rganishda, uni targ‘ib etishda, malakali kadrlarni yetishtirib chiqarish va balalar musiqa va san’at mакtablarini oliy ma’lumotli kadrlar bilan ta’minalash uchun katta imkoniyat bo‘ldi. Chunki bugungi kunda umumta’lim va bolalar musiqa va san’at mакtablarida oliy ma’lumotli kadrlar yetishmasligi muammosi ko‘p yillardan beri yechimini kutayotgan muammolardan biri edi.

Respublika bo‘ylab universitetlarda yangi ta’lim yo‘nalishlarning ochilgani, oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashi yaxshi albatta ammo viloyatlarimizda talabalarga dars beradigan malakali kadrlar yetishmasligi yanabir muammoni keltirib chiqardi. Uni yechimi sifatida viloyatlarda ko‘p yillardan beri faoliyat yuritib kelayotgan madaniyat

¹ www.wikipediya.uz

va san'at kollej (hozirgi kunda ixtisoslashtirilgan maktab) larida faoliyat yuritib kelayotgan malakali mutaxassislarini oliy ta'lim muassasalariga jalb etish bo'ldi. Bu harakatlar xozirgi kunda eng to'g'ri yechim mening nazarimda...

Masalaning yana bir tomoni borki u xam bo'lsa o'quv soatlari. O'quv rejada kiritilgan mutaxassislik fanlariga ajratilgan soatlarning yetarli emasligi, yakka dars mashg'ulotlari yakka tarzda emas ikki va undan ortiq talabalar bilan mashg'ulot olib borilishi talabalarni fanni o'zlashtira olmayotganligini ko'rsatmoqda.

Bu kabi muammoni pedagogika universitetlarida xam ko'rishimiz mumkin.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va viloyatlardagi pedagogika universitetilarining — Musiqa ta'limil ta'lim yo'nalishida taxesil oladigan talabalarga xam o'zbek xalq cholg'ularini o'rganish uchun o'quv rejalarida dars soatlari ajratilgan. Ammo 2017-yildagi vaqt miyorlariga asosan yakka dars shaklida emas ansambl shaklida o'tilishi talabalarning o'zbek xalq cholg'ularini yetarli darajada o'rgana olmayotganligiga, oqibatda bironta cholg'uni mukammal ijro eta olmay oliy ta'lim muassasasini bitirib ketayotganligini ko'rish mumkin. Eng yomoni qo'lida oliy ma'lumotli diplomi bor kadrning umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritib, — Musiqa madaniyati fanidan dars berib musiqa cholg'ularini ijro eta olmasligi, darslikda keltirilgan qo'shiqlarni o'quvchilarga o'rgata olmasligi.

Bu bilan yetishib chiqayotgan mutaxassislarning barchasi shu axvolda deyishdan yiroqman, afsuski bunday kadrlar xam borligini inkor xam eta olmaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldag'i — Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-112-sonli Qarorida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina topshiriqlar va vazifalar qo'yilgan bo'lib ular ijrosi bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilsa soha rivoji yanada yuqoriga ko'tarilishi ko'ramiz albatta.

Qarorda qayd etilgan - musiqa san'ati bo'yicha professional ta'lim hamda oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatga ega bo'lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholg'ularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutaxassislarini asosiy ish joyidan bo'sh vaqtida u yerdagi mehnatga haq to'lash shartlarini saqlab qolgan holda o'rindoshlik asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari musiqa fani o'qituvchisi va musiqa yo'nalishidagi to'garak rahbari lavozimiga to'liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat beriladi;

- Musiqa fani o'qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etishga o'rgatish xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida mashg'ulot olib borish uchun madaniyat va san'at sohasi vakillari shartnomaga asosida jalb etiladi; kabi topshiriqlar amalda joriy etila boshlansa o'quvchilar va o'qituvchilar uchun ham milliy cholg'ularni o'rganishga juda katta imkoniyat yaratiladi. Musiqa sohasida taxesil olayotgan talaba ham o'z ustida ishlab bilimini oshirishga, cholg'ularni mukammal

o‘rganishga intilish. Chunki ertaga ishlaydigan joyiga borib uyalib qolmasligi uchun xozirdanoq harakat qiladi.

Mening fikrimcha Prezidentimizning ushbu qarori juda ham to‘g‘ri va oqillonadir. Chunki yoshlarimizning milliy ohanglarni eshitib, milliy cholg‘ularimizni ijro etib ulg‘aysalar ularda milliy rux vatanga bo‘lgan muhabbat kuchli bo‘ladi. An’anaviy cholg‘ullarga bilamizki, dutor, tanbur, nay, g‘ijjak, doira, nog‘ora va qadimiy cholg‘ullarimiz hisoblangan, surnay g‘ajirnay qo‘schnay, karnay, sopolnay, sibizg‘a, do‘mbira, changqovuzlar kiradi. Bugungi kunga kelib ushbu cholg‘ularimizdan zamonaviy musiqada foydalanish ancha susayganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish uchun milliy cholg‘ularni targ‘ib etish, ularni keng ommaga tadbiq etish va ta’lim jarayonidagi kamchillikkarni to‘g‘rilash bugungi kun talabiga aylanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. www.Lex.uz
2. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” asari
3. www.wikipediya.uz
4. Madaniyat.uz web sayti